

TIL –MILLIY G’URURIMIZ

Gulhayo Rahmonqulova

JDPI O’zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Davlat tili –davlatning asosiy aholisi tamonidan davlat ichida umumiyligi qo’llaniluvchi til .U siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotning barcha sohalarida keng qo’llaniladi .Til vositasida davlat o’z fikrini ifodalaydi ,faoliyatini olib boradi va xalq bilan muloqotda bo’ladi .Davlat tili- milliy davlat suvereniteti belgisi .U davlat irodasini ko’rsatuvchi harakatlarning amalga oshishi uchun xizmat qiluvchi davlatchilikning funksiyalovchi elementi .Til shunchaki muloqot vositasi emas ,balki qonun tamonidan muhofaza qilinuvchi davlat ramzlari (bayroq, tamg’ a va boshqalar)dan biri sifatida qabul qilinadi va agar millat o’z milliy davlatchiligidagi ega bo’lsa bu holatda u konstitutsion huquqiy darajada, qonuniy yo’l bilan o’zining ijtimoiy madaniy qadryati sifatida milliy tilni har tamonlama rivojlantirish uchun g’amxo’rlik qiladi .Biroq davlat tilini qonuniy asosda joriy etish boshqa til egalari huquqlarini kamaytirmaydi .Qonun aholi manfaatlarinigina emas ,aholining barcha tabaqalari huquqlarini ham kafolatlaydi .

Har qanday til tarixi shu tilda gapiruvchi xalq o’tmishi va madaniyatini aks ettiradi ,madaniy yodgorliklarni o’rganish davomida insoniyat rivojlanishining u yoki bu bosqichida xalq tilining rivojlanishi uchun qanday narsa hodisa va voqealar muhim ahamiyat kasb etganligini bilib olamiz .Tilning leksik fondi insonni qurshab turgan olam ,uning tafakkuri va madaniy rivojlanish darajasini, sintaktik tuzilishi esa insonning fikrlash darjasini amalga oshishini ko’rsatadi .Til nafaqat asliyatni ,balki inson hayotidagi o’ziga hos reallikni ham izohlaydi. Madaniyat inson dunyoqarashini belgilovchi olamning lisoniy manzarasidan ajralmasligi sababli bu haqidagi ma’lumot til nominatsiyalari strukturasida o’z aksini topgan .Til shakllari

va mantiqiy kategoriylar o'rtasidagi yaqin munosabat til tuzilishininhg yashirin semantik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradigan tabiiy tilning nutqiy tuzilishini o'rganish zarurligini belgilaydi .Faqat mantiqiy tahlil insonga hos mavhum o'ylashni o'zining lingvistika obyekti sifatida topish, ko'rish anglashga imkon beradi .Shunday qilib til va mantiqning o'zaro munosabati tilshunoslik va alohida ravishda lingvomadaniyatshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega .Til zamonaviy tadqiqotlarda ozining murakkabligi bo'yicha noyob va ko'p o'lchamli hodisa sifatida namoyaon bo'ladi ,bu bir vaqtning o'zida mustahkam strukturalangan va shu strukturalarni parchalovchi jarayon ,faoliyat va uning natijasi ,me'yor va me'yorlardan chetga chiqishning ijtimoiy va individual ,universal va lingvospetsifik birikmasi ahamiyatli darajada idrok va fikrlashni tadqiq qiluvchi obyektivlashtirish va fikrlash qobig'idir .Til butun insoniyat va ayrim etnos madaniyatlarga kalit sifatida qaraladi .

Til insonning asosiy xarakteriktikasi sifatida tan olinadi .Inson ongini ,nutqni shakllantirish va idrok etish qobiliyati sifatida tilsiz va uning doirasidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi .So'z onhg va hayoliy obyektning mavjudligida o'z o'rniga ega bo'lib ,ular orasida joylashgan .So'z tufayli tafakkurning o'zi tadqiqot obyekti bo'lishi va malum darajada avloddan avlodga qoldirilishi mumkin. Tafakkurimiz faqatgina til qobig'i va shaklida tushuntirilishi mumkin ekan ,inson dunyosi ham tilning mavjudlik usuliga ko'ra insonning o'zi tamonidan anglab yetiladi .

V.Gumboldt fikricha inson madaniyatning obyektyiv va ma'naviy olamidagi mavjud til chegaralari ichida joylasha olmaydi ,til har doim xalqning o'ziga xosligi, milliy dunyoqarashi va milliy tuyg'usini ifodalaydi .Shunday qilib ,biz faqat til yordamida mumtoz va zamonaviy madaniyat boyliklari to'g'risida boxabar bo'lishimiz mumkin .

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab hozirgacha bo'lган ijtimoiy –siyosiy ,ma'naviy –ruhiy muhit va uning dinamikasini chuqr tahlil etganimizda shu narsa ayon bo'ladiki ,milliy til siyosati to'g'ri yo'l bilan

amalga oshirildi .U nimalarda namoyon bo'ladi ?O'zbekistonda turli demokratik harakatlar ,milliy bayroq ostida hokimyatga intiluvchi qator qing'ir niyatli guruhlarning harakatlariga avval boshdanoq chek qo'yildi bu ,avvalambor,o'zbek tilining davlat tili maqomiga erishishi uchun zamin yaratdi .Shuningdek ,”Davlat tili haquda”gi qonun g'oyasining kun tartibiga qo'yilishidan tortib qonun yangi tahrirda qabul qilingunicha fuqarolarning milliy o'zligini anglash ko'nikmalarini bir maromda shakllantirib borishiga etibor berildi .Shu bilan birga milliy o'zlikni anglashning yuksalishida boshqa millat vakillari huquqlarini kamsitishga yo'l qo'yilmadi ,bu demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurish jarayoni uchun ko'ngilsiz holatlarning oldini oldi .Bu borada jahon tajribasida ham shu kunga qadar katta o'sish ro'y berdi . Insoniyat tarixining yangi davridagi millatlarning shakllanish va taraqqiyot zaminidagi ,ya'ni XVI-XXasrlardagi tarixini ko'zdan kechirsak ,bu besh asr milliy o'zlikni anglashning o'sishi ,millatning yuksalishi asrlari bo'lganini ko'ramiz .Shu davr ichida insoniyat o'zining ming yillik tarixi davomida yaratgan boyliklaridan ham ko'proq moddiy va ma'naviy madaniyat yaratdi .Bunday mo'jiza shuning uchun ham amalga oshdiki shu bir necha asr davomida Yevropada millatlarning to'laqonli shakllanishi hamda rivojlanishi uchun qulay imkoniyat ,erkinlik mavjud bo'ldi .Milliy tillarning ravnaq topishi ham bu jarayonlardan chetda qolmadi.

Yurtimizda olib borilayotagn til siyosati o'zbek tilining yanada taraqqiy etishi uchun katta imkoniyatlar yaratib bermoqda va hozirgi kunda tilshunoslarimiz tamonidan sohaga doir qator tadqiqotlar olib borilmoqda .Zero, bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan inavatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz.Bu bejiz emas ,albatta . Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi ?Yangi fikr,yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi . Fikrga xulosa yasagan holda shuni aytish mumkinki , bugungi kunda respublikamiz har bir jabhada ilg'or qadamlar bilan olg'a bormoqda. Qadryatlarimiz ,urf-odatlarimiz tiklanib xalqimiz orasida qadim tarixga ega bayramlarimiz keng nishonlanmoqda .Milliy madaniy meroslarimizga hurmat oshib nafaqat yurtimizda

,balki jahon miqiyosida ham bebahо boyliklarimizga bo;lgan qiziqish ortib bormoqda .Shu o'rinda ona tilimiz ham bugungi kunga kelib o'z qadt –qimmatiga ega bo'lганligini ,o'zbek tilini rivojlantirish yo'lida bir qator salmoqli amaliy ishlar qilinayotganligini aytish joizdir .

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.Istiqlol yo'li :to'plam –Toshkent 1995.
2. Til va adabiyot :to'plam –Toshkent 2019.
- 3.B.Karimov ,K.Mir'azamov.Millat ravnaqi va til muammolari ;Toshkent-1993.
- 4.WWW.ziyo.com